

“O'zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing o`tkazildi

// 08.02.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/komplyaens-xizmati-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-brifing>

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “O'zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing o`tkazildi.

“O'zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohada preventiv choralarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha tarmoq korxonalarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomi”, “Nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma”, “Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma” va “Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti” kabi 10 dan ortiq ichki idoraviy hujjatlar qabul qilinib, mazkur hujjatlardagi tartib-taomillar bilan xodimlarni tanishtirish va amaliyotga joriy etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2022-yil davomida “O'zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomi” talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo'lgan 6250 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi. Tahlillar natijasiga ko'ra **57 nafar** mas'ul xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi, **37 ta** holatda esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi aniqlangan. Mazkur holatlar bo'yicha aniqlangan manfaatlar to'qnashuvlarini zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'rildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida kimyo sanoati korxonalarida korxonalar va davlat mulklarini o'zlashtirish va korrupsion jinoyatlar bo'yicha jami **65 ta** xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan. Xizmat tekshiruvlari natijalariga ko'ra to'plangan hujjatlar tegishli tartibda huquq-tartibot idoralari yuborilib, oqibatda **28 nafar** xodim jinoyiy javobgarlikka tortilgan, **25 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, **100 nafar** mas'ul xodimlarga turli intizomiy jazolar qo'llanilgan.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, 2021-yil davomida tarmoq korxonalarining tovar-moddiy boyliklari hamda vakolatli ijara omborlarida jami bo'lib **85,5 mlrd so'mlik** turli tovar-moddiy boyliklari va mineral o'g'itlar kamomadi aniqlangan bo'lsa, Komplayens xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va muntazam o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida 2022-yil mobaynida vakolatli ijara omborlarida kamomadlar aniqlanmagan.

2022-yilda “O'zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsion harakatlar, korxonalar mablag'larining talon-taroj qilinishi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga qo'shib yozishlar oqibatida tizimga jami **28,3 mlrd so'mlik** zarar yetkazilganligi aniqlanib, tergov harakatlarini olib borayotgan idoralar bilan hamkorlikda

yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan tegishli choralar ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, hisobot davrida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar "Xaridlar siyosati" va "Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma" talablariga rioya etilishini ta'minlash natijasida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash orqali jami **7,5 mlrd so'mlik** pul mablag'larining asossiz sarflanishining oldi olingan.

"O'zkimyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi murossasiz kurashish, huquqbuzarliklarni erta aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, qolaversa, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan aniq, tizimli ishlarni amalga oshirishda davom etadi.